

“HAYRAT UL ABROR” ASARIDA IJODKORNING FALSAFIY QARASHLARI

Abduhoshimova Marhaboxon

Farg‘ona davlat universiteti

Filologiya fakulteti

O‘zbek tili yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostoni misolida ijodkorning falsafiy qarashlari tahlil qilinadi. Asarda ilgari surilgan axloqiy-ruhiy g‘oyalar, inson kamoloti, adolat, ma’rifat, komil inson haqidagi falsafiy tushunchalar o‘zaro bog‘liq ravishda yoritiladi. Muallifning tasavvufiy dunyoqarashi, ijtimoiy-ma’naviy qarashlari va ularning badiiy ifodasi ilmiy asosda o‘rganiladi. Tadqiqot navoiy ijodidagi falsafiy tafakkurning shakllanishi va badiiy talqinini chuqur yoritishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, Hayrat ul-abror, falsafiy qarashlar, tasavvuf, komil inson, ma’naviyat, adolat, axloq.

Annotation: this article analyzes the philosophical views of the creator reflected in Alisher Navoi’s “Hayrat ul-abror”. The study explores the ethical and spiritual ideas, concepts of human perfection, justice, enlightenment, and the ideal human portrayed in the work. It also examines Navoi’s sufi worldview, his socio-moral perspectives, and their artistic representation. The research aims to reveal the formation and literary interpretation of philosophical thought in Navoi’s oeuvre.

Keywords: Alisher Navoi, Hayrat ul-abror, philosophical views, Sufism, perfect human, spirituality, justice, ethics.

Alisher Navoiy o‘zbek mumtoz adabiyotining eng yirik namoyandalaridan biri hisoblanib, uning ijodida inson, jamiyat va ma’naviyat haqidagi falsafiy qarashlar muhim o‘rin tutadi. Shoirning “Xamsa” turkumiga kiruvchi “Hayrat ul-abror” dostoni badiiy-falsafiy mazmunning yuksak namunasi bo‘lib, unda axloq, adolat, ma’rifat, komil inson tarbiyasi kabi masalalar chuqur falsafiy talqin etilgan. Mazkur asar nafaqat mumtoz

adabiyot taraqqiyotidagi muhim bosqich, balki Navoiy dunyoqarashining shakllanishi va pishib yetilishida asosiy manbalardan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Dostonda ilgari surilgan ruhiy-ma'naviy g'oyalar ijodkorning tasavvufiy tafakkuri, ijtimoiy qarashlari hamda hayotiy tajribasi bilan uyg'unlashib, mukammal badiiy tizimni hosil qiladi. "Hayrat ul-abror"dagi falsafiy mushohadalar orqali Navoiy insonning axloqiy poklanishi, nafsni yengishi, adolatli jamiyat qurish va ilm-ma'rifatning ahamiyati kabi masalalarga e'tibor qaratadi. Asarning har bir bobida shoirning chuqur falsafiy tafakkuri, dunyo va inson haqidagi mushohadalari, hikmatli xulosalari mujassam bo'lib, ular o'z davrida ham, bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan.

Ushbu maqolada "Hayrat ul-abror" dostoni misolida Navoiy ijodining falsafiy asoslari, tasavvufiy g'oyalarning ifodalanish uslubi, shuningdek, asarda komil inson konsepsiyasining badiiy talqini ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi dostonning badiiy-falsafiy qatlamini ochib berish, ijodkorning dunyoqarashi va tamoyillarini aniqlash hamda ularning Navoiy ijodiy merosidagi o'rnini belgilashdan iborat.

"Hayrat ul-abror" Navoiy "Xamsa"sining birinchi dostoni bo'lib, unda pandnoma, hikmat, tasavvufiy mushohada va falsafiy tahlil unsurlari uyg'unlashgan. Asarning asosini insonning axloqiy va ma'naviy poklanishi, jamiyatning mukammallikka intilishi, adolat va ezgulikning ustuvorligi kabi g'oyalar tashkil etadi. Dostonning 20 bobdan iborat bo'lishi ham muayyan ramziy tuzilishga ega bo'lib, har bir bob komil inson tarbiyasi va dunyoqarashining alohida bir jihatini yoritadi. Navoiy janr imkoniyatlaridan keng foydalangan holda, falsafiy mushohadalarni badiiy obrazlar, hikoyatlar va masallar vositasida ifodalaydi.

Alisher Navoiy "Hayrat ul-abror" dostonining bosh g'oyasi kitobxonni komil shaxs sifatida tarbiyalash va uni yetuklikka erishish yo'lida ko'prik vazifasini bajara oladigan darajada mukammal qilib yaratdi¹. Asarda ijodkorning barkamol shaxs haqidagi o'ylari maqolatlardagi hikoyatlarda nasihat tarzida yozilib yorqin inti'kosini topgan va yana maqolatlarda ilgari surilgan tayanch g'oyalarni kitobxon shuuriga yanada teranroq ta'sir

¹ H. Nazarova. Alisher Navoiyning "Hayrat ul-Abror" dostonidagi hikoyatlarda oriflar timsoli" maqola/2024

etishi, uning mavzu bilan mukammalroq tanishishga imkon yaratgan. Birinchi maqolat “Shayx Boyazid Bistomiy va uning muridi haqidagi hikoyat” bo’lib Shayx Boyazid Bistomiy va uning muridi haqidagi voqealar keltiriladi. Hikoyatda diniy mazmundan tashqari tasavvufiy qarashlar ham mavjud bo’lib, bunda tariqatdagi xavf maqomi haqida ham so’z boradi deb aytish mumkin. N. Komilovning "Tasavvuf" kitobida yozilishicha, xavf tariqatning 6-qomi bo’lib, bunda soliqning nafs makridan qo’rqishi, shayton nayrangining ko’ngliga xavf solishi nazarda tutiladi. Nafs shunday kuchli dushmanki, soliq tariqatdagi tavba, vara’, zuhd, farq, sabr kabi maqomlarni egallagan bo’lishiga qaramay, nafsning iymonga daxl qilishi mumkinligidan doim xavfda bo’ladi.

O’n uchinchi maqolatda Alisher Navoiy insoniyatning abadiy axloqiy-ruhiy muammolaridan biri yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlikning mohiyati haqida chuqur falsafiy mulohazalar yuritadi. Bu maqolatning mazmuni Sharq falsafasi, tasavvuf, islom axloqiy ta’limoti va umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg’un holda shakllangan bo’lib, unda ezgulikning inson ma’naviy taraqqiyotidagi o’rni alohida ta’kidlanadi.

Navoiy nazarida, yaxshilik bu insonning botiniy pokligi, qalb nuri, ichki uyg’onishining belgisi. Ezgulikka moyillik insonning fitratiga xos bo’lib, u pok niyat, xolis muhabbat, mehr-shafqat kabi fazilatlar orqali namoyon bo’ladi. Shuning uchun alloma yaxshilik ulashuvchi zotlarning sifatlarini sanab o’tar ekan, ularni faqat axloqiy fazilat sifatida emas, balki ruhiy yetuklik darajasi sifatida talqin qiladi. Mehribonlik, ochiqko’ngillik, himmat, saxovat tasavvuf falsafasida “qalbning poklik alomatlari” sifatida qoraladi. Bunday fazilatlar insonning ichki olami taraqqiy topganini ko’rsatadi. Aksincha, ezgulikdan uzoqlashgan odamning ruhiy olami torayadi, nafsiy istaklar uni boshqarishni boshlaydi va u pastkashlik, g’iybat, hasad, birovning kamchiligidan quvonish kabi illatlarga qul bo’ladi. Tasavvuf falsafasiga ko’ra, bunday inson “nafsu ammora” ya’ni yovuzlikka undovchi nafsning asiriga aylanadi. Navoiy ana shunday ruhiy holatni tanqid qilib, yomonlikka moyillik aslida insonning o’zini yo’qotishi, ichki nurlarini so’ndirishi ekanini ta’kidlaydi.

Shoirning:

“Nafing agar xalqqa beshakdurur,

Bilki bu naf o‘zungga ko‘prakdurur”²

misralari ham aynan shu falsafiy mazmunga tayanadi. Bu baytning mohiyati tasavvufdagi “ezgulikning qaytimi”, ya’ni qilgan yaxshilik avvalo insonning o‘z ruhiga ta’sir etishi haqidagi g‘oyani ifodalaydi. Ezgu amal boshqalarga ko‘rinishi bilan ularga foyda bersa-da, asl savobi, ichki ta’siri, ruhiy yengilligi, qalbning kengayishi eng avvalo uni amalga oshirgan odamga qaytadi. Sharq falsafasida bu holat “karma”, “jazoni nafsdan topish”, “amaling o‘zinga qaytadi” tamoyillari bilan hamohangdir. Yomonlik qilgan odam esa aslida boshqalarga emas, eng avvalo o‘z ruhiga zarar yetkazadi. Hasad, g‘iybat, adovat insonning qalbini qora qiladi, uni iztirob va ruhiy beqarorlik holatiga soladi³. Demak, Navoiy nazarida ezgulik ruhiy yuksalishning mezoni, yomonlik esa insonning ichki qulashining belgisi.

Shu tariqa Navoiy o‘n uchinchi maqolatda yaxshilik va yomonlik haqidagi axloqiy pandlarni falsafiy mazmun bilan boyitib, insonni doimo ezgulik sari intilishga undaydi. U ezgulikni inson kamolotining markaziy poydevori sifatida ko‘rsatadi va shaxsning ma’naviy sayohati aynan shu fazilatlarni tarbiyalashdan boshlanishini uqtiradi.

Maqolotlarda keltirilgan hikoyatlar orqali Navoiy inson tabiatidagi ikki kuch: ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi abadiy kurashni falsafiy mushohada asosida yoritadi. Yaxshilikning mohiyati, insoniyat uchun ahamiyati, shaxsning o‘zini anglash jarayonidagi o‘rni keng tahlil qilinadi. Ayniqsa, ezgulikni ulashgan odam avvalo o‘z ruhining yengilligini topari, yomonlik esa inson qalbini zaiflashtirib, nafsning asiriga aylantirishi haqidagi fikrlar Navoiy falsafasining asosiy qirrasini tashkil etadi. “Hayrat ul-abror” ijodkorning hayot, inson mohiyati, ma’naviy barkamollik haqidagi chuqur falsafiy qarashlarini jamlagan, o‘zining tarbiyaviy va ma’rifiy ahamiyatini bugungi kunda ham saqlab qolgan bebaho asardir.

² Alisher Navoiy “Xamsa” doston/Hayrat ul-abror. – Toshkent: “Tamaddun”, 2021. 392b.

³ Luqmoni Hakim o‘g‘itlari va aforizmlar. Tarjimon va nashrga tayyorlovchilar Abdumurod Tilavov, Muhammadayub Sobitaliev. - T.: “Adabiyot uchqunlari” nashriyoti, 2017 -128 b.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Alisher Navoiy “Xamsa” doston/Hayrat ul-abror. – Toshkent: “Tamaddun”, 2021. 392b.
2. Alisher Navoiy. “Xamsa”. “Yangi asr avlodi”, 2018. 42-bet.
3. H. Nazarova. Alisher Navoiyning “Hayrat ul-Abror” dostonidagi hikoyatlarda oriflar timsoli” maqola/2024
4. Luqmoni Hakim o‘gitalari va aforizmlar. Tarjimon va nashrga tayyorlovchilar Abdumurod Tilavov, Muhammadayub Sobitaliev. - T.: “Adabiyot uchqunlari” nashriyoti, 2017 -128 b.
5. Rumi, Jaloliddin. Qalb ko‘zingni och... Mavlono Rumiyan hikmatli so‘zlar. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi Sabohat Bozorova. T.: “Sanostandart” nashriyoti, 2011. 160 bet.